“Alhagi turkum o’simliklarining metabolitlari” nomli monografiya chop etildi

O’zR FA O’simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan “*Alhagi* turkum o’simliklarining metabolitlari” nomli monografiya nashr etildi.

Monografiyada dunyo florasidagi Alhagi Tourn. ex Adans. turkumiga mansub o’simlik turlaridan ajratilgan ekstraktiv moddalar va individual holdagi birikmalarning kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarining o’rganilganlik darajasi, geografik tarqalishi bo’yicha ilmiy adabiyot ma’lumotlari jamlangan. Birinchi marotaba alkaloidlar, terpenoidlar, fenol birikmalar, uglevodorodlar, lipidlar va uglevodlarga mansub 460 dan ortiq birikmalarning tuzilishlari to’liq namoyon etilgan. Ajratilgan birikmalar tahlil qilinganda ular orasida fenol birikmalar sinfi, jumladan flavonlar, flavonollar, flavononlar, izoflavonlar, izoflavonolignanlar va flavon-3-ollar guruhi flavanoidlari miqdoriy jihatdan ko’pligi aniqlandi. Ma’lum bo’ldiki, bir xil turdagi metabolitlar sifat jihatdan o’simlikning o’sish joyining ekologik-geografik va tuproq iqlim sharoitlariga bog’liq. Monografiyada keltirilgan ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, Alhagi turkumiga mansub o’simliklar yangi turdagi istiqbolli dori vositalarini yaratishda muhim hisoblanadi.

Ushbu monografiya bioorganik kimyo, biologiya, farmakologiya sohasida ishlaydigan mutaxassislarga, shuningdek, shu sohaga oid magistr va bakalavrlarga mo’ljallangan.